ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA XRONOTOP SHAKLLARI
ФОРМЫ ХРОНОТОПА В ПОЭМАХ ЭРКИНА ВАХИДОВА
THE TYPES OF CHRONOTOPE IN ERKIN VOKHIDOV'S EPICS

Yuldasheva Halima Muxitdinovna
PhD, Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi,
E-mail: Halimaxonim@gmail.com

Qabul qilindi: 13.10.2025
Ko'rib chiqildi: 14.10.2025
Tasdiqlandi: 15.10.2025

Kalit so'zlar:
xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, real, ijtimoiy, psixologik, milliy.

Ключевые слова:
хронотоп, художественное время, художественное пространство, реальный, социальный, психологический, национальный, фантастический хронотоп.

Keywords:
chronotope, literary time, literary space, real, social, psychological, national, fantastic chronotope.

.

Annotatsiya
Maqolada bugungi adabiyotshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri xronotop shakllarining badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Jahon adabiyotshunosligida ushbu muammo tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar olib borilmoqda. Xronotop borliq olam va undagi inson munosabatlarini tasvirlashga, qahramon ruhiyatining turli manzaralarini to'liq his qilishga, yozuvchining badiiy-g'oyaviy maqsadini ifodalashga hamda asarning mazmun va shaklini ochishga xizmat qiladi

Аннотация
В статье анализируются художественноэстетические особенности форм хронотопа, одна из актуальных проблем сегодняшнего литературоведения. Приоритеты в области категории хронотопа в мировой литературе: литературно-эстетическая сущность и теоретические принципы, влияние на архитектуру художественного произведения.. Хронотоп служит для описания взаимоотношений мира и человека, полного переживания глубины душевных переживаний героя, выражения художественно-мировоззренческого замысла писателя, раскрытия содержания и формы произведения.

Annotation
The article analyzes the literary and aesthetic features of chronotope forms, one of the current problems of literary criticism. The following priorities in the field of the chronotope category in world literature:

literary and aesthetic essence and theoretical principles, evolution, modification of types and genres, influence on the architecture of a work of art. The chronotope serves to describe the relationship between the world and man, fully experience the depths of the hero's emotional experiences, express the writer's artistic and ideological purpose, and reveal the content and form of the work.

KIRISH. Jahon adabiyotshunosligida makon va zamon tushunchalari va uning badiiy asardagi vazifalari xususida ko'pgina izlanishlar olib borilgan. Adabiyotshunos olim M.Baxtin badiiy asarning muhim unsurlaridan bo'lgan xronotop tushunchasini tahlil qilib, shunday ta'rif beradi: "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg'unlikni xronotop, deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo'llab kelinadi. Istillohning biz uchun matematikada qo'llanadigan maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo'q. Uni biz adabiyotshunoslikka(tom ma'noda bo'lmasa ham) istiora o'laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o'rinda istillohning zamon va makonni uyg'un holatda ifodalashidir". [Baxtin, 1975: 234-235].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbek adabiyotshunosligida bu borada yirik tadqiqotlar olib borgan prof. U.Jo'raqulov A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tahliliga oid risolasida "eng muhim va roman dunyosi uchun yangilik bo'lgan jihatlardan yana biri romanning xronotop tizimidir. Biz har qanday adabiy janr fazilatini, syujeti va obrazlari mohiyatini bu nazariy tushunchasiz to'la anglay olmaymiz", – deb yozadi. [Jo'raqulov U. 2015, 200].

Shu ma'noda olim nazarda tutgan har qanday adabiy janrning fazilat, sujeti va obrazlar mohiyati uchun zarur tushuncha – xronotop biz tadqiqot obyekti qilib olgan atoqli o'zbek shoiri Erkin Vohidovning mashhur asarlaridan biri "Nido" dostoni g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyatga ega, deyish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Xronotop borliq va undagi insonning o'zaro munosabatlarini tasvirlashda, qahramonlar shuuridagi kechinma, iztirob, ruhiyat manzaralarining eng nozik jihatlarini chuqur his qilishda, muallifning badiiy-g'oyaviy maqsadini aks ettirishda hamda asarning mazmunini ochishda muhim rol o'ynaydi. U ijodkor uslubining o'ziga xosliklarini aniqlab, milliy fikrlash tarzini aks ettiradi hamda asarning ichki izchilligini mustahkamlaydi.

Anglashiladiki, zamon va makon kategoriyasi umumlashtiruvchi vazifa bajaradi, yaxlit holda voqealar mantiqiyligini ta'minlaydi. Dostonda quyidagi xronotoplar tizimini kuzatish mumkin:

Makon xronotopi – tog'lar bag'ridan, Ona Yerning, bo'g'zimga , dardli olamga, ko'z oldimda, qishloq ko'chasidan kabi;

Zamon xronotopi – bir daqiqa, bir marta, yigirma yil, yillar, tun, tongda, hozircha, bir nafas, 44-yil, sentabr tongi, birinchi bor, xat keltirgan kun kabi.

Real xronotop. Erkin Vohidov dostonlarida voqelikning hayotiyligi va ishonarliligini ta'minlashda real xronotopning ahamiyati katta. Dostonda qalamga olingan voqealar retrospeksiya (o'tmishga murojaat) usuli orqali turli holatlarda harakatlantiriladi. Yigirma yil tilga olinmagan, yigirma yil dilda saqlangan muqaddas OTA so'zini "vujudi tilka bo'lib" yodga olayotgan bolakay xayolot osmonida parvoz qilib, "bir marta yo'qotib topolmagan" aziz insonining ruhi bilan muloqot qiladi, cheki yo'q savollarga ko'mib tashlaydi.

Doston avvalidayoq shoir asarning nomlanishiga asosli sabab keltiradi. Murg'ak qalb armoniga aylangan OTA MEHRIga tashnalikning boisi haybatli tog'lardan kelayotgan sado, ONA YERning qa'ridan eshitilayotgan "O'g'lim!" nidosi. Bu hayqiriq muallif xayollarini 20 yil muqaddam kechgan bolalik damlariga olib qochadi. XX asrning dahshatli voqeasi – ikkinchi jahon urushi kechgan yillar shoir hayotining beg'ubor fasliga to'g'ri kelgan. Mash'um urush ayni shataloq oshib o'ynaydigan, "endigina beshdan oltiga" o'tgan yoshdagi bolakayning ma'sum qalbida umrbod bitmaydigan jarohatlar qoldirganligi har bir misradagi og'riqli savollarda aks etadi. O'quvchi ko'z o'ngida insoniyat boshiga vahshat solgan urush manzarasi jonlanadi: "og'ir qadamlar", "etiklar zarbi", "titrayotgan tuproq"… Yigirma yil "ota" so'zini tiliga olmagan, dilida saqlagan bola mehribon kishisini bilan o'tkazgan baxtli onlarni xayolida tiklab olmoq uchun ruhiy munosabatga kirishadi.

Vujudimni chulg'ar alanga,
Bo'g'zimga tiqilar hayajon.
- Mana, men o'g'lingiz,
Dardli olamga
Sizdan tanho yodgor,
So'ylang, otajon!

Real xronotop ijodkor tasavvuridagi badiiy olamda sochilib yotgan voqealarni, turli zamon-u makonlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Qahramonning xotiralari, o'y-mushohadalari xronotop maydonini kengaytirgan. Onaning "faqat o'zbek yo rus uchun emas, balki butun Yer – undagi bor avlod uchun, dunyoda eng qutlug' e'tiqod uchun uzoq o'lkalarda qon kechib jang qilayotgan" otaga, shu bilan birga, ertangi "Ona Yer qaytadan yasharadigan bir kun" ga bo'lgan yuksak ishonch tuyg'ulari bola tasavvurida ota obraziga qorishib ketadi.

Real xronotop muallifning ichki harakati bilan uyg‘un tarzda kuchli dramatizmni tashkil qiladi. “Nido” dostonida voqealar tizimi bosh qahramon - BOLAning iztirobli savollari, tush epizodlari orqali rivojlanib boradi. Tush xronotopi orqali murg’ak go’daklarning ota mehridan ayro bo’lgan ayanchli holatlari, inson qiyofasidagi zolimlarning tubanlikka, zalolatga yuz tutayotgani, o‘z manfaati yo‘lida hech qanday jamiyat-u jamoani tan olmasligi asarning poetik imkoniyatlarini kengaytirishga, Erkin Vohidovning ma’sum qahramoni – “qishloq ko’chasida zanjiday qaro bolaligi yugurayotgan” beg’ubor xilqat uchun “yaralangan bu majruh dunyo qasos so’rayot”gani ifoda etilgan misralarda yangi estetik qirralarini ochishga imkon yaratgan.

“Ijodkorning ijodkorligi ham shundaki, uning nazdida armonning ham o’ziga xos rangi bor. U orzularning shakl-shamoyilini ham ko’ra biladi. Eng hayratlanarlisi, orzu va armonning ranglari shu qadar turfaki, uning nav’i hatto yer yuzidagi odamlar adadiga teng”, [Jabborov. 2015: 29].

deb yozadi adabiyotshunos olim, professor N.Jabborov. Shu ma’noda muallif doston qahramonining tushi orqali uning qalbi tubidan emas, balki to’ridan joy olgan orzularini, nozik tuyg’ularini, sog’inch-iztiroblarini badiiy tasvir etadi. Romantik asarlarda tush epizodi qahramonlarni biror voqea-hodisadan voqif qilish vazifasini bajargan bo’lsa, realistik adabiyotda qahramonlarning ichki dunyosini, kechinmalarini yoritish uchun xizmat qiladi, badiiy asar mazmunida murakkab ruhiy holat yaratish vositasi o’laroq qahramonlarning orzu-xayollarini psixologik asoslaydi.

- Ana, ko’ryapsanmi?
- Mening dadamlar!

Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq,
Yuguraman – ortga ketar qadamlar.
Yig’layman – ko’zimga kelmaydi namlar,
Murg’ak vujudimda faqat zo’r titroq!
Bo’g’zimda alamlar,
Achchiq alamlar,
Yo’lning o’rtasida turibman,
Shu choq –
Poyezd qichqiradi,
To’xtang, odamlar!
Qayga ketmoqdasiz?
Qani dadamlar?!
Tepamda yonadi zangori chiroq…

Psixologik xronotop dostonning quyma satrlarida ko‘zlari chaqnab turgan, biroq vujudi tilka beg‘ubor qalb egasining yurak iztiroblari orqali badiiy ifoda etilgan. Adabiy asarda tush epizodi katta badiiy ahamiyaga ega vosita

hisoblanadi. Qahramonining alamli sog‘inchlarini, achchiq alamlarini Onaning orom bag‘ishlovchi allalari, mehr to‘la erkalashlari bosadi:

Orom ol, men senga
Allalar aytay.
Tongda peshonangdan
O’pib uyg’otay.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy munosabatlar in’ikosi sifatida maydonga keladigan badiiy asar ma’lum bir zamonda va makonda kechadigan voqealar ifodasidir. Xronotop adabiy-estetik kategoriya sifatida butun adabiy-badiiy tizimiga: asar syujeti, qahramonlariga ta’sir etadi. Shuning uchun ushbu masalani chuqur o’rganish, badiiy-ilmiy tahlil qilish, adabiyotshunoslik fanining asosiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –Toshkent: “Akademnashr”, 2015.–B.43-44.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent., 2002.
3. N.Jabborov. Zamon.Mezon.She’riyat. –Toshkent: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. –B.
4. Jo’raqulov U. Nazariy poetika masalalari. G’.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijoduy uyi. Toshkent. 2015, 200-bet
5. To‘rayeva B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 1 (42),146-168
https://journal.fledu.uz
ISSN: 2181-8215 (online)